

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ANORQULOVA OZODA NIZOMJON QIZI

**O‘ZBEK TILIDA “OTA” KONSEPTINING LISONIY-KOGNITIV
TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi

О'zbek tilida "ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini 3

Анорқулова Озода Низомжон қизи

Лингво-когнитивное интерпретация концепта "отец" в узбекском языке 23

Anorqulova Ozoda Nizomjon qizi

Linguo-cognitive interpretation of the concept "father" in the uzbek language 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ANORQULOVA OZODA NIZOMJON QIZI

**O‘ZBEK TILIDA “OTA” KONSEPTINING LISONIY-KOGNITIV
TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.2.PhD/Fil2367 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mirzayev Ibodulla Kamolovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Xayrullayev Xurshid Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Lutfullayeva Durdona Esonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi fan doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.27.06.2021.Fil.02.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 174, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

M.Q.Muhiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

D.B.Urinbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida inson omiliga yangicha yondashuv, bugungi kunda rivojlanib kelayotgan yangi sohalar, xususan, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar til bilan bog‘liq hodisalar mohiyatini aniqlashga antropologik nuqtayi nazardan keng qirrali tahlilni talab etmoqda. Tadqiqot ishi jahon tilshunosligida badiiy konseptlarni o‘rganishga oid ishlarni tahlil qilish orqali o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyotida mental dunyoqarashimiz, milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq konseptlarni lisoniy-kognitiv jihatdan tahlil qilish orqali uning mohiyati antropotsentrik nuqtayi nazardan ochib berilishi bilan dolzarbdir.

Dunyo fanida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlar tildagi mavjud hodisalar mohiyatini ochib berishda konseptlarning muhim o‘rin tutishi, ularda so‘zlovchining ijtimoiy hayot tarzi, dunyoqarashi, ma’lum so‘z atrofida mavjud bo‘lgan barcha tushunchalar, aksariyat holatda, bir konseptni turli tillar kesimida badiiy adabiyot namunalari asosida o‘zaro qiyoslash yo‘li bilan ochib berilgan. Shu bois, badiiy matnda amal qiluvchi konseptlarni aniqlash, ular orasidan xalqimizning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettirganlarini keng ko‘lamda o‘rganish, bu borada salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirish zarurdir.

Mamlakatimizning Uchinchi Uyg‘onish davriga qadam qo‘yishi, o‘zbek tilining davlat tili sifatida yurtning ichki va tashqi hayotidagi nufuzi ortib borishi, funksional-stilistik imkoniyatlarining kengayishi shu vaqtga qadar e’tibordan chetda qolgan, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularga ham qo‘l urishni taqozo qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”¹. Tadqiqot natijasida milliy-madaniy konseptlarni o‘rganish asnosida yosh avlod ongiga vatanparvarlik, ona tiliga, ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari singdiriladi hamda bugungi globallashtirish jarayonida zamon talablariga javob bera oladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan, keng fikrlaydigan kadrlar yetishib chiqadi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-son Qarori bilan “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida”gi Nizomi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПҚ-4479-сон Қарори. uza.uz.

2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi 571-son “Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Qarori hamda 2020-yil 11-martdagi 139-sonli “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

G‘arb tilshunosligida keyingi yillarda “konsept”, “konseptosfera” bilan bog‘liq izlanishlar olib borishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Ular orasida rus, ingliz tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar talaygina. Askoldov S.A., Stepanov Yu.S., Karasik V.I., Petlyuchenko N.V., Kasimova O.P., Kuznetsova L.E., Malaxova S.A., Nesvetaylova I.V., Prikhodko A.N., Scherbina V.Ye., Kusainova A.M., Demyankov V.Z., Medvedeva T.S., Yashenko T.A., Saxno O.P., Dzyuba Ye.V., Grigorev A.A., Proxorov Yu.Ye., Dordjiev D.V., Xaritonova V.Yu., Perfileva N.Y., Bogdanova N.V., Menzairova Ye.A., Slishkin G.G., Brukvina V.A., Bulatnikova Y.N., Axmedova D.X., Mirzoeva Z.D kabilar tomonidan chop etilgan monografiyalar², maqolalar³; amalga oshirilgan

²Аскольдов С.А. Русская словесность. От к структуре текста. // Антология.– М.: Academia, 1997 - С. 267-279.; Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – М.: Языки славянских культур, 2007. – 248 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография. – Волгоград: Перемена, 2002. — 477 с.; Петлюченко Н.В. (ред.) Концепты и контрасты: монография. Одесса : Издательский дом «Гельветика», 2017. – 632 с.; Касимова О.П. Концепты русские, запад и восток в русской языковой картине мира – Уфа: Башкирский государственный университет, 2018. — 160 с.; Кузнецова Л.Э., Малахова С.А., Несветайлова И.В. Лингвокультурный концепт: англо-русские параллели. – Армавир: Армавирский государственный педагогический университет, 2015. — 116 с.; Приходько А.Н. Концепты и концептосистемы. –Днепропетровск: Белая Е.А., 2013. — 307 с.; Щербина В.Е. Концепт «время» во фразеологии немецкого и русского языков. – Оренбург: Оренбургский государственный университет, 2008. — 138 с.; Кусайнова А.М. Мировоззренческие концепты в творчестве поликультурного казахстанского писателя Г. Бельгера. Монография. — Костанай: Костанайский филиал ЧелГУ, 2020. — 78 с.; Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001.-№1.- С.35-47.

³ Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.; Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке. Статья.// Вопросы филологии. 2001. № 1. – С. 35-47.; Медведева Т.С. К вопросу о сопоставлении лингвокультурных концептов // Вестник Удмуртского университета. История и филология, 2009. Вып. 1. –С. 120-132.; Ященко Т.А., Сахно О.П. Душа как ключевой культурный концепт киноповести В.М. Шукшина Калина красная // "Культура

monografik tadqiqotlar bu jihatdan xarakterlidir. O'zbek tilshunosligida aynan bizning tadqiq obyektimiz bo'lgan mavzuda maxsus kuzatish olib borilmagan bo'lsa-da, badiiy matnlarning konseptual xususiyatlari to'g'risida fikrlar bildirilgan ishlar mavjud. O'zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog'liq masalalar tadqiqida X.Doniyorov, S.Mirzayev, I.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abduraxmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, Sh.Safarov, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayeva kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Tadqiqot Samarqand davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti ta'limi muammolari" mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilshunosligida "Ota" konsepti semantik doirasiga kiruvchi qarindoshlik terminlarini lingvokognitiv jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Konsept va konseptosferaning olamning lisoniy manzarasiga munosabatini aniqlash;

tilshunoslikda konseptlarni o'rganishga turlicha yondashuvlarni ko'rib chiqish va ularning namoyon bo'lish imkoniyatlarini lisoniy-kognitiv jihatdan ochib berish;

Diniy-ma'rifiy adabiyotda ota konsepti bilan bog'liq matnlarni aniqlash;

"Ota" konseptining leksik-semantik qolipini ishlab chiqish;

"Ota" konseptini faollashtiruvchi leksik birliklarni tilning turli sathlari misolida dalillash;

O'zbek xalq maqollarida ota konseptiga doir tushunchalarni izohlash;

"Ota" konseptining nasriy va nazmiy janrlarda lingvokognitiv xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti qilib o'zbek tilida "Ota" konseptini ifodalovchi "oy", "quyosh", "mas'ul", "jannati zot", "daraxt", "qotil", "aybdor" kabi turli leksik birliklar olindi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilida "Ota" konseptining diniy-marifiy, folklor va badiiy matnlarda aks etgan lisoniy-kognitiv xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot jarayonida umumilmiy tavsifiy metod elementlaridan (tanlash, tasnif, leksik materiallarni izohlash); qiyosiy-tarixiy metod (etimologik tahlil o'tkazish va tilning diaxron holatiga ko'ra qiyoslab o'rganish);

народов Причерноморья", том 49 (I). С. 72-74.; Дзюба Е.В. Особенности содержания концепта ум в языке Древней Руси // Известия Уральского федерального университета. Серия 2: Гуманитарные науки, № 3, 2010. – С. 175-187.

⁴ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962 – Б. 216; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 154.; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ, 1975 - Б.172; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; -Умурқулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 60.; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Дисс... док.филол.наук. – Ташкент, 1992; Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009. – Б.40.

leksikografik tahlil; konseptual tahlil metodi; leksik-semantik maydonni aniqlash metodidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

konsept va konseptosfera orqali olamning lisoniy manzarasi aniqlanib, tilshunoslikda “oila”, “ona”, “vatan”, “do‘stlik”, “erkak” kabi konseptlarning leksik, pragmatik, kognitiv jihatlarini ochib berilgan;

“Ota” konseptining “Qur’oni Karim”, “Al Jome’ as sahih”, “Qur’on qissalari”, “Lubobul hadis”, “Baxtiyor oila” kabi diniy-ma’rifiy, “O‘zbek xalq maqollari”, “O‘zbek xalq topishmoqlari” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida til, tafakkur, ong, lison bilan bog‘liq mental, madaniy kognitiv tamoyillari asoslangan;

“Ota” konseptining leksik-semantik qolipi hadislar, xalq maqollari, topishmoqlardagi tushunchalar kesimida ishlab chiqilib “daraxt”, “yag‘ir”, “o‘gay” kabi leksik birliklarning badiiy matnda aks etgan pragmatik xususiyatlari dalillangan;

“Ota” konseptining nasriy va nazmiy janrlardagi “gulshan”, “pir”, “ustoz”, “shohi zamon”, “sarv”, “beminnat zot”, “sadaf”, “chiroq” birliklarining “xazina” kabi badiiy, “narvon” kabi pragmatik ma’nolari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanish jarayonida mavzuga daxldor kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistikaga oid ilmiy manbalarga asoslanganlik, “Ota” konseptini tahlil qilishda xalqimizning milliy-ma’naviy qadriyatlari, dunyoqarashi va mentalitetidan kelib chiqilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilida “Ota” konseptini lisoniy-kognitiv yo‘nalishda tadqiq etish tildagi mavjud konseptlarning tarixiy-etimologik, semantik-stilistik va lingvopragmatik, lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘plangan materiallardan kelgusida tilimizdagi konseptlarni lingvomadaniy, lisoniy-kognitiv jihatdan o‘rganishning tadqiq usullarini belgilashda, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvomadaniyat bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda ko‘rinadi, to‘plangan materiallar va tadqiqot natijalari mazkur fanlarni o‘qitish va bu sohalariga oid nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilida “Ota” konseptini lisoniy-kognitiv jihatdan tadqiq etish asosida:

konsept va konseptosferaning olam lisoniy manzarasiga munosabati, badiiy adabiyotning og‘zaki va yozma manbalarida “Ota” konsepti bilan bog‘liq materiallar yuzasidan olib borilgan tahlillar hamda ulardan umumlashgan xulosalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyoshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 292-son ma’lumotnomasi). Natijada kommunikatsiya

jarayonida “Ota” konseptining namoyon bo‘lish shakllari, ushbu tushunchaning interferensiya jarayonida yuzaga keladigan holatlar aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishida ota shaxsiga munosabat, uning qadr-qimmat, sha’niga bo‘lgan hurmat masalasi, filologik ta’limda ushbu atamaning leksik, frazeologik, semantik, etimologik xususiyatlari bo‘yicha xulosalar chiqarish imkonini yaratgan;

o‘zbek nasri va nazmiga oid diniy-ma’rifiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi manbalarida ota bilan bog‘liq o‘rinlarning badiiy va kognitiv tahlili, konsept va konseptologiya bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ular yuzasidan chiqarilgan xulosalardan, “Ota” konseptining mazmun ko‘lami hamda ifoda uslubi nasriy asarlar misolida tadqiqi yuzasidan chiqarilgan xulosalardan 2012-2016-yillarda bajarilgan FA-F1-GOO2 raqamli “Qoraqalpog‘ folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpog‘ gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 24-son ma’lumotnomasi). Natijada badiiy adabiyot namunalarida ota shaxsi bilan bog‘liq bo‘lgan konseptosfera ilmiy va amaliy jihatdan tahlilga tortilgan jihatlar bo‘yicha berilgan takliflar loyiha ishini bajarishga xizmat qilgan;

sharq otalariga xos bo‘lgan xislatlar, otaning farzandlari, oilasi, turmush o‘rtog‘i oldidagi burchlari, dinimizda belgilab qo‘yilgan buyruqlar, farzandlarning ota-ona oldidagi asosiy vazifalari, qolaversa, xalq og‘aki ijodi, o‘zbek badiiy adabiyotida ota shaxsiga bo‘lgan munosabat to‘g‘risida berilgan tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va ma’rifat” davlat unitar korxonasining “Milliy ta’lim”, “Til – millat ko‘zgusi” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 25-martdagi 01-02-02/63-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Milliy ta’lim” ko‘rsatuvida yosh-avlodni ota-onaga hurmat, shafqat va mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, ta’lim berish, bu borada ona tili va adabiyot darsliklarida aynan shu mavzudagi maqol, topishmoqlar, rivoyatlar, hadislarida berilishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar ongiga singdirilishi lozimligi haqida fikrlar bildirilgan;

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” nomli asari matnida ota shaxsiga bo‘lgan munosabat, haqiqiy sharqona otalarga xos bo‘lgan xislatlar, Otaning farzandlari, oilasi oldidagi, farzandlarning esa ota oldidagi mas’uliyatli burchlari bo‘yicha keltirilgan o‘rinlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining «Onajonim she’riyat» to‘garagi ma’ruzalarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 29-martdagi 01-03/470-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek adabiyotining yirik vakillari: Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Zulfiyaxonim, Muhammad Yusuf, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlarning ota shaxsiga bo‘lgan munosabatini, ular ijodida otaning ulug‘vorligi qay darajada ekanligi to‘g‘risida badiiy tasavvurlari shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 5 ta respublika konferensiyasida ma’ruza shaklida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 138 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kognitiv tilshunoslik terminlarining ilmiy-nazariy tahlili”** deb nomlanadi. **“Konsept va konseptologiya kognitiv tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida”** haqidagi birinchi faslda bugungi kun dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektiining markazini tashkil etishi haqidagi fikrlar yuritilgan. Mazkur sohalarining yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog'liqdir.⁵ Bu esa konsept tushunchasi bilan bog'liq bir qator masalalarni ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

Rus lingvistikasida 20-asrning birinchi yarmida faylasuf S.Askoldov tomonidan muomalaga kiritilgan bu tushunchani olim turli millat vakillarining muloqotiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan kommunikativ jarayon sifatida baholaydi.⁶ U konseptning og'zaki, konseptual va obrazli shakli masalasida o'z fikrlarini bayon etish barobarida uni ikki: kognitiv va badiiy turga ajratadi hamda eng muhim xususiyat sifatida kognitiv konseptni birinchi o'ringa qo'yadi.⁷ Chunki biror so'z yoki atamaning konseptual xususiyatlarini tahlil qilishda, dastlab, kishi ongi, idroki ishga tushadi. Kishilar bilan muloqotga kirishishda ham, kommunikativ holatni yuzaga chiqarishda ham, nutqiy strategiya tuzishda va samaraga erishishda ham inson idrokining ahamiyati katta.

S.Stepanov tomonidan yozilgan **“Концепты Тонкая пленка цивилизации”** kitobining ham asosiy atamasi konsept bo'lib, olim bu tushunchani mantiq, psixologiya, falsafaga tegishli bo'lgan **“Konsept”**ga, tarixiy nuqtayi nazardan

⁵ Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини. Филол. фанлари доктори дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – 5-б.

⁶ Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст]. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С.267–280.

⁷ Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология // Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.

Platon “g‘oyalari”ga o‘xshash madaniyat hodisasi sifatida baholaydi. Yana bir olim V.Z.Demyankov “Konsept” atamasining ma’nosi, etimologiyasi, turli tillardagi shakllari hamda ta’riflari haqida maqolalar e’lon qilgan. U o‘zining “Термин “концепт” как элемент терминологической культуры” nomli kitobida “konsept” va “tushuncha” so‘zlarini tarixiy dubletlar ekanligi, biroq, endilikda ilmiy va noilmiy foydalanishda ularning o‘zaro farqlanishi haqida fikr-mulohazalarini bayon etish barobarida ularga shunday ta’rif beradi: “Konsept - og‘zaki belgining mazmun tomoni, tushuncha esa voqelik. Ular inson hayotining aqliy, ma’naviy yoki hayotiy muhim moddiy sohasiga tegishli bo‘lgan, odamlarning ijtimoiy tajribasi bilan rivojlangan va mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan, ijtimoiy va subyektiv ravishda tushunilgan jarayonlardir”.⁸ Haqiqatdan ham, avvalo, belgilab olingan so‘zga tegishli bo‘lgan konsept inson ongida gavdalanadi, so‘ngra bu bo‘yicha tushunchalar paydo bo‘ladi.

Konsept tushunchasining mohiyatini yaqindan anglash uchun tilshunoslikda unga berilgan ayrim ta’riflarni keltirib o‘tamiz:

D.S.Lixachev konseptga ta’rif berishda ma’no va tushuncha nuqtayi nazaridan yondashadi va quyidagicha baho beradi: “*konsept –shaxsning tushunishi, mazmundorlikning oz miqdorda obyektiv ma’no va tushuncha tarzida namoyon bo‘lishi*”⁹.

Ye.S.Kubryakova esa konseptning tilda ifodalanishini e’tirof etgan holda uni bevosita xotira bilan bog‘laydi va xotira birligi sifatida ta’riflaydi: “*Konsept – xotiraning faol birligi, mental so‘z boyligi, konseptual tizimlar va miya tili, olamning jami manzaralari, bilim kvanti. Eng muhim konseptlar tilda ifodalangan.*”¹⁰.

Nazarimizda Ye.S.Kubryakova boshchiligida yaratilgan “Kognitiv terminlarning qisqacha lug‘ati”da konsept tushunchasiga birmuncha to‘liq ma’lumot berilgan: *Konsept (lot.conceptual: ma’no, mazmun, tushuncha) – inson ongining ruhiy zahiralar va mental birliklarni hamda uning tajribasi, bilimini aks ettiradigan ma’lumotlarni izohlash uchun xizmat qiluvchi atama; xotira, mental so‘zlar va miya bilan bog‘liq faol birlik, inson ruhiyatida aks etgan olam manzarasining konseptual tizimi, ya’ni shaxsning dunyo obyektlariga oid tasavvurlari, o‘ylari, taxminlari, bilimlari haqidagi ma’lumotlardir*¹¹.

Kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera termini – bu milliy konseptlarning jamlanmasi ma’nosini anglatadi. U til sohibiga oid konseptlarning barcha imkoniyatlari bilan vujudga keladi. Xalq konseptosferasi tilda anglashilgan semantik sferaga nisbatan keng hisoblanadi. Milliy madaniyat, xalq og‘zaki ijodi, fan va badiiy adabiyot qay darajada boy bo‘lsa, xalq konseptosferasi ham shunga mos holda keng hisoblanadi.

⁸ В.З.Демьянков Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н.Ю.Шведовой / Отв. ред. М.В.Ляпон. – М.: Издательский центр «Азбуковник», 2007. (РАН: Институт русского языка им. В.В.Виноградова). – С.606–622.

⁹ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка / Серия литературы и языка. Т. 52. № 1. – М., 1993. – С.281.

¹⁰ Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996. – С.90-92.

¹¹ Кубрякова Е.С. и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: изд-во МГУ, 1996. – С. 97-99.

Birmuncha yangi hisoblangan bu yo‘nalish bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari ko‘lami ortmoqda. Shu o‘rinda Sh.Safarov, N.Mahmudov, T. Mardiyev, E.Mamatov, M.Rahmatova, O.Yusupov, G.Hoshimov¹² kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash joiz.

Yuqorida jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan “Konsept” terminiga berilgan alohida-alohida ta’riflarni, qolaversa konseptologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar, tadqiqotchilar va ularning ilmiy ishlarini keltirib o‘tdik. Ularda keltirilgan fikrlarni umumlaydigan bo‘lsak, “konsept” so‘zi lotincha “conceptus” so‘zining tarjimai bo‘lib, “tushuncha” degan ma’noni anglatadi. U o‘zbek tilidagi “tushuncha”, “ma’no” so‘zlari bilan sinonimlik hosil qila oladi, biroq mazmun-mohiyatan bir xil emas. U tafakkur mahsuli sifatida insonning o‘y-xayollari, fikrlashi natijasida to‘plangan axborotning umumiy bir tizim asosida shakllangan ko‘rinishidir. Xulosa qilganda, konsept inson ichki olami, ruhiyati, milliy xususiyatlari, o‘z hayoti davomida orttirgan bilimi, olamni qanday idrok qilishi, tasavvurlarini qamrab oladigan ma’lumotlardir.

1.2. “Ota” konsepti ilmiy tadqiqot predmeti sifatida va diniy-ma’rifiy matnlardagi talqini.

Keyingi yillarda mamlakatimizda din ravnaqi, uni insonlar ongiga to‘g‘ri singdirish borasida juda katta islohotlar boshlangan. Shu asnoda muqaddas kitob “Qur’oni karim”ning o‘zbekcha tarjima variantida mavjud matnlar tilshunoslikning turli sohalari bo‘yicha tahlil qilinmoqda. N.M.Uluqov o‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganib, o‘zbek tilshunosligida birinchi marta o‘zbekcha diniy matnlardagi ekzotizmlarning lug‘aviy-ma’noviy, uslubiy xususiyatlarini keng tahlil qilgan, mavzuiy jihatdan guruhlariga ajratgan, ekzotizmlarning til leksikasidagi o‘rni, ularning o‘z va o‘zlashma qatlam so‘zlaridan farqli xususiyatlarini yoritgan¹³. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida islomiy

¹² Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор”, 2006. – Б. 92.; Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. –Тошкент: —Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти, 2008. – Б.300.; Сафаров Ш.С. Тил назарияси ва лингвометодология: монография. -Тошкент. -BAYOZ, 2015. – Б. 376; Махмудов Н. Ўзбек тилининг таракқиёти. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т. 2002. 4-сон. – Б. 5-7.; Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талқини (инглиз ва ўзбек тиллари қисмида) // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016, №10. – Б.36-44.; Мардиев Т. “Дўстлик” концепти билан боғлиқ паремияларнинг семантик хусусиятлари. // “Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим” (илмий ахборотнома журнали). – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2010, №1. – Б.43-46.; Мардиев Т. Инглиз ва ўзбек тилларида “Дўстлик” концептининг вербаллашуви. Монография. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2015. – Б. 156.; Мардиев Т. Концептнинг лисоний структураси // “Хорижий тиллар ва адабиётларни ўрганишда маданиятлараро мулоқот” –Тошкент: ЎзДЖТУ нашри, 2010, -Б.247-250.; Мардиев Т. Лингвоконцептлар типологияси // Международной научно-практической конференции на тему: “Проблемы образования и занятости населения”. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2008. – Б. 124-126; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий -амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.; Раҳматова М. Ўзбек лингвомаданиятида “хунуклик” концептининг лексик ифодаланиши // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2013, №4. – Б.51-54.; Раҳматова М. Гўзаллик концептининг бадиий матнларда воқеаланиши ва унинг концептуал таҳлили. – Бухоро, 2019, №2. -Б.101-107.; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурега атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент: 2011.–Б. 49-56; Хошимов Г. М. К теория концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Систем структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010.

¹³Тухтасинова Н. Агнотерминлар таржимасини бериш тамойиллари. <https://www.oriens.uz/media>

leksika bo'yicha kuzatishlar olib borgan D.Hakimovning ham tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi¹⁴.

Tadqiqotimiz avvalida rus tilshunos olimi T.A.Poletayeva, o'zbek tilshunoslaridan M. Ravshanov, M. Raxmatovalarning¹⁵ xuddi shu yo'nalishda olib borgan tadqiqotlari bilan tanishib chiqdik. Poletayeva Tatyana Aleksandrovnaning tadqiqot ishlarida "muhabbat" konsepti Qur'on, Injil va Bibliya matnlaridagi misollar asosida o'zaro taqqoslanadi. Ma'lum bo'lishicha, "Muhabbat" so'zining o'zi Qur'onni anglatishi bilan xarakterlidir. Unda boshdan-oyoq har bir narsaga muhabbat bilan qarash buyurilganligi ham bu jihatdan xarakterli. Qur'onda muhabbat kuchli, injilda bu chastota birmuncha past ekanligi, biroq bu ko'rsatkich Bibliyada juda yuqori darajada ekanligi asoslanadi.¹⁶

Keyingi yillarda Islom dini va uning erkinligiga yanada e'tibor kuchaydi. Mamlakatimiz Prezidentining bu boradagi fikrlari yuqoridagi fikrimizni dalillaydi: *"Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamligining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi"*¹⁷. Xuddi shu asosda endilikda dinimizning asl mohiyati insonlar ongiga to'g'rilikcha singdirilmoqda, uning taraqqiyoti uchun juda katta to'siqlar olib tashlanib, yangilanishlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu esa ma'naviy dunyoqarashimiz asosi bo'lgan "Qur'oni karim" hamda hadislarida mavjud "ota" konseptiga doir mulohaza yuritishimizga imkon beradi.

Olam yaralibdiki, ota atamasi mavjud. Bu esa bevosita tadqiqot obyektimizni Islom olamining muqaddas kitobi "Qur'oni karim" oyatlari bilan bog'laydi. Alloh taolo "Qur'oni karim"ning bir necha suralarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularga ehtirom ko'rsatish, ehtiyojlarini qondirish farzand zimmasidagi eng muhim burchlardan ekanini ta'kidlaydi. Chunki, Tangri yaratgan ilk inson Odam Ato, insoniyatning yaralishi, yer yuziga tarqalishi, unda yashashi, oila qurishi, dunyoning barcha yaxshi-yomon lazzatlari-yu, ne'matlaridan bahramand bo'lishi Alloh amri bilan Odam alayhissalomga borib taqaladi.

"Qur'oni karim" oyat va suralarida ota atamasi quyidagi ma'nolarda kelganligiga guvoh bo'lamiz:

/conferencearticles/26_217-227.pdf.


¹⁴ Ҳақимов Д. Ҳозирги ўзбек адабий тилида исломий лексика. // ЎТА. – Т., 2001. №4. – Б. 64-65.

¹⁵ Полетаева Т.А. Концепт «любовь» в Библии и Коране (в русскоязычном и англоязычном переводах) // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. – Т.5, №2, 2019. – С.95-107.; Полетаева, Т.А. Концепт "предательство" в Библии и Коране (в русскоязычном и англоязычном переводах) / Т.А. Полетаева // Научные ведомости БелГУ. Сер. Гуманитарные науки. - 2018. - Т.37, №3. – С. 429-441.; Равшанов М. Концепт «Ислам»: определение значения знания и разума // Журнал ВАК: file:///C:/Users/1/Downloads/kontsept-islam-opredelenie-znacheniya-znaniya-i-razuma.pdf; Рахматова М. Қуръони каримда "гўзаллик" коцептининг когнитив ифодаланиши // БухДУ илмий ахбороти. – Бухоро, 2018. №2. –Б.101-102.

¹⁶ O'sha maqola.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19-сентябрь куни АҚШда бўлиб ўтган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нутқидан.

Ota – barcha insonlar pushtipanohi. Odam Ato (*ato* – ota terminining qadimiy shakli. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ato so‘zining “in’om etmoq”, “baxsh etmoq”, “bermoq” ma’nalari keltirilgan. Balki Alloh Odamni yaratib unga jon va hayot, ilm ato etganligi sabab unga ato shakli qo‘shilib aytilgan, keyinchalik kishilar tilida ato shakli ota ma’nosiga singib ketgan bo‘lsa ajab emas,)ni yaratdi va Alloh taolo farishtalariga:“Men yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman...”, -deydilar. (Baqara surasi, 1-pora, 30-oyat)



Hadisi shariflarda “Ota” konseptosferasi **tarbiyai, jannati zot, mas’ul, qiyomatdan darak, o‘gay, vasiyat qiluvchi, hurmatga sazovor, tarozibon** kabi tushunchalarni o‘z atrofida jamlagan. Bunga doir misollarni yanada davom ettiraverish mumkin. Xullas, matnlarda talqin qilingan fikrlar tom ma’nodagi insoniy fazilatlarining ota konseptida mujassamlashganidan dalolat beradi.

Xulosa qilish mumkinki, ota konseptini ilmiy jihatdan tahlilga tortganda bu konsept doirasida qaraluvchi lisoniy birliklarning matnda tutgan o‘rnini aniqlash bilan chegaralanib qolish yetarli emas. Tadqiqot olib borishda xalqimizning o‘ziga xos dunyoqarashini, mental xususiyatlarini hisobga olish ko‘zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Og‘zaki ijod namunalarida “ota” konseptining lingvokognitiv xususiyatlari”** deb nomlanadi. Bobning birinchi faslida **“O‘zbek xalq maqollari matnida “ota” konseptini tavsiflovchi kognitiv belgilar”** o‘rganilgan. Bizga ma’lumki, Har bir xalqning o‘tmishi-yu, hayot tarzi, urf-odatlar-yu an’analaridan jonli tarzda xabar beruvchi, xalq tili orqali og‘zidan og‘izga o‘tib kelayotgan, baxshilar tomonidan kuylanib bugungi holiga go‘zal tarzda yetib kelgan adabiyotning ajralmas qismi hisoblangan xalq og‘zaki ijodi bugungi kunda ko‘plab tadqiqotlarning bosh mavzusi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lgan maqol turli tillarda har xil nomlar bilan atalgan bo‘lsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan.¹⁸

¹⁸ http://turizm.kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/maqollar

Tilshunos M.Raxmatovanning “Ingliz, o‘zbek va tojik milliy madaniyatida “go‘zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari” deb nomlangan falsafa doktorligi uchun yozilgan dissertatsiyasining ikkinchi bobida o‘zbek xalq maqollarida “go‘zallik” konseptiga oid tushunchalar tahlilga tortilgan bo‘lib, maqollarda go‘zallik muayyan, lekin subyektiv ekanligi isbotlab berilgan¹⁹.

Rus tilshunosi Basova Larisa Valerevnaning dissertatsiya ishida rus xalq maqollarida “mehnat” konseptining leksik, semantik, lisoniy-kognitiv, etimologik jihatdan tahlili asosida ilmiy-nazariy ma’lumotlar berilgan²⁰.

Xuddi shu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlardan biri A.Shofqorov, N. Shayxulislomov, E.Alimovalar tomonidan yozilgan “O‘zbek va ingliz tilidagi maqollarda “do‘stlik” konsepti ifodalanishi” nomli maqolasida ham o‘zbek va ingliz maqollari orasidan do‘stlik tushunchasini ifodalaydigan bir qancha maqollar misol sifatida keltirilib, kognitiv tahlil qilishga harakat qilingan, biroq unda mavzuning asl mohiyatidan chetlashish, juda qisqa tahlillar keltirish, yozilgan maqollarning to‘liq tahliliga to‘xtalmaslik holatlari ham kuzatiladi.

Umuman olganda, tilshunoslik sohasida o‘zbek xalq maqollari ko‘p ishlangan va bu borada salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

O‘zbek xalq maqollarida boshqa manbalarga qaraganda ko‘proq otaning mo‘tabarligi, ulug‘vorligi, o‘rni, qadr-qimmat masalalari ochiq-oydin va tushunarli tasvirlangan. Mavzu jihatidan eng ko‘p ota-ona haqidagi maqollar yetakchilik qiladi. Sababi, o‘zbek xalqi azal-azaldan ota-ona duosi bilan yuksalgan, otaning rizoligi Alloh rizoligiga tenglashtirilgan. Hatto ota turgan uyning tomiga chiqmaslig-u, ulardan yarim qadam bo‘lsa-da ilgarida yurmaslik, uning so‘zini ikki qilish tugul, ko‘ziga tik boqmaslik, gapini bo‘lmaslik kabi insoniy fazilatlar va amallar juda go‘zal, ohangdor va ta’sirli qilib berilgan.

Xalq **maqollarida ota — bog‘, bog‘bon, xazina, davlat, jon fido qiluvchi zot** kabi ko‘plab konseptlarni ifodalaydi. **“Ota-bola — bir bog‘, Biri — gul, biri — bog‘bon”**. Ushbu maqolda oila bog‘ga qiyos etilib, unda ota va farzand munosabatlari gul va bog‘bon o‘rtasidagi holatga tenglashtirilmoqda. Ya’ni bog‘bon gulni qanchalik mohirlik bilan ishlov berib qarasa, mehr bersa, parvarish qilsa, gul shunchalik chiroyli, atrofga o‘z iforini tarqatuvchi va o‘zgalarga zavq bag‘ishlovchi bo‘ladi. Ota mehr bilan, to‘g‘ri tarbiyalagan farzand, albatta, kelajakda xalq koriga yaraydigan va o‘ziga rahmat yog‘diradigan inson bo‘lib yetishishi shubhasiz. Negaki, *“Farzand kamoli — ota jamoli”*. Tahlilimizda bog‘bonlik otaga qiyos etilgan bo‘lsa, vaqti kelib, bu vazifa farzandga o‘tishi ham mumkin. Chunki ota qarigach, farzand uchun bog‘dagi gulga aylanadi. Ya’ni endi unga parvarish, mehr va e’tibor kerak. O‘z padari buzrukvoriga himmat qilgan, asrab-avaylagan va duosini olgan farzand hamisha el ichida aziz va mukarram bo‘ladi. Zero, *“Otangga qilganingni farzandingdan ko‘rasan.” “Yelka yag‘ri — otaga meros, Ota yag‘ri — o‘g‘ilga meros”*. O‘zbek xalqi juda dono va ziyrak, notiq xalq bo‘lib, birgina otaning farzand o‘stirib, kamolga yetkazish

¹⁹ Ракматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари. Фалсафа докторлиги (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – 13-бет.

²⁰ Басова Л.В.. Концепт труд в русском языке (на материале пословиц и поговорок) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Тюмень 2004. – С.24.

mashaqqatlarini ikki jumlada aks ettirib bera olgan yuqoridagi kabi maqollarni yaratishgan. Dastlab, maqolda keltirilgan “**yag‘ir**” so‘ziga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, uning bir nechta ma’nolari mavjud. Birinchi ma’nosi – *ot, eshak, tuya kabi hayvonlar ustida terining og‘ir yukdan ezilishi, ishqalanishi tufayli yuz beradigan yiringli yara, jarohat* ma’nosida kelsa, ko‘chma ma’noda *og‘ir yuk yoki zarba tufayli kishi yelkasida hosil bo‘lgan jarohat, yara* ma’nosida, yana bir o‘rinda *kiyim-boshning juda iflos, isqirt holati* ma’nolarida qo‘llaniladi.²¹ Shu qadar ko‘p, og‘ir va kezi kelganda, zavqli oila tashvishlari, farzandlar kamoli, ro‘zg‘orning kam-u ko‘stlari, burchlari va shu kabi amallar ota zimmasidagi vazifalar sanaladi. Bularning natijasida paydo bo‘lgan yag‘irlar baquvvat va katta hayvonlarnikidan hecham qolishmaydi. Farzandlar esa ana shunday otalarining fazilatlarini o‘zlashtirishi, qadrlashi hamda kerak bo‘lsa, meros bilishi zarur. Sababi, “*Farzand — belning quvvati*”.

Bobning ikkinchi fasli “**O‘zbek xalq topishmoqlari matnida “ota” konseptining milliy-madaniy xususiyatlari**” tadqiqiga bag‘ishlangan. Tilshunoslikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarning obyekti sifatida topishmoqlar yetakchilik qiladi. Aynan kognitiv yo‘nalishdagi ishlarning aksariyatida topishmoq matnlari asosiy material vazifasini bajargan. Jahon va o‘zbek olimlaridan S.S.Gorkina, O.V.Kulaga, Z.Husainova, E.Ashuraliyev²² kabilarning bu boradagi ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida yuqoridagi xulosalarga kelindi.

